O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OILY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIY-IQTISODIYOT FAKULTETI

SOTSIOLOGIYA VA IJTIMOIY ISH KAFEDRASI

SOTSIOLOGIYA YO’NALIShI.

# Sotsial institutlar ijtimoiy rivojlanish agenti sifatida

# MALAKAVIY BITIRUV ISHI

**Bajaruvchi: Sanaqulov S.**

**Ilmiy rahbar: dots. Ro’zimurodov A**

**Malakaviy bitiruv ishi Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2011 yil ___ _____dagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi (bayyonnoma№___).**

**Kafedra mudiri: dots.Jo’rayev L.N.**

**Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2011 yil __ ____dagi majlisida himoya qilindi va __ foizga baholandi (bayyonnoma №__).**

**Samarqand – 2011.**

# Mavzu: Sotsial institutlar ijtimoiy rivojlanish agenti sifatida

## Reja

**Kirish**

1. **Ijtimoiy institutlar, ularning mazmuni va mohiyati**
2. **Oila ijtimoiy institutining tarkibiy va mazmuniy o’zgarishi**
3. **Mahalla ijtimoiy instituti evolyutsiyasining sotsiologik tahlili**
4. **Ijtimoiy institutlarning jamiyat boshqaruvini takomillashtirishdagi roli**
5. **Ta’lim ijtimoiy institut sifatida**

**Xulosa**

**Adabiyotlar ruyxati.**

# Мундарижа

**Kirish……………………………………………………………..3-4**

1. Ijtimoiy institutlar, ularning mazmuni va  mohiyati ………5-17
2. Oila ijtimoiy institutining tarkibiy va mazmuniy  o'zgarishi…18-36
3. Mahalla ijtimoiy instituti evolyutsiyasining sotsiologik tahlili…………………………………………………………37-54
4. Ijtimoiy institutlarning jamiyat boshqaruvini takomillashtirishdagi roli……………………………………55-64
5. Ta'lim ijtimoiy institut sifatida………………………………65-79

**Xulosa……………………………………………………..80-83**

**Adabiyotlar ruyxati………………………………………84-85**

# Kirish

**Мавзунинг долзарблиги:** "Institut " deganda bir birlari bilan ancha keng birlikka qo'shilgan qismlar yoki elementlarning o'zaro tartibga solingan joylashuvi tushuniladi. Ijtimoiy institut-jamiyatdagi mavjud mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi hamda ijtimoiy vazifalar tizimidan kelib chiquvchi nisbatan mustahkam, o'zaro bog'langan ijtmoiy birliklar, shuningdek, ijtmoiy tizim elementlarining majmuasi; jamiyatning yoki ijtimoiy guruxning ichki qurilmasidir. Ijtimoiy institutning oxirgi tarkibiy qisimlari ijtimoiy hayotda ishtirokchi shaxslar sifatida namoyon bo'ladigan insonlardir. Institutning o'zi esa, shaxslarning bir-biriga nisbatan tartibli joylashtirilishidir.

Sotsial institut-( lotincha institutum, ruscha lug'aviy ma'nosi-ustanovniya, o'zbekcha ma'nolarda, birinchidan, nizom, qoidalar yoki ularning to'plamini, ikkinchidan, mahkama muassasalarini bildiradi. Ijtimoiy institut tushunchasi huquqshunoslik fanidan kirib kelgan. Yurispendensiyada ijtimoiy institutlar deyilganda ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni idora qiladigan huquqiy normalar(merosxo'rlik, mulkka egalik , oila va nikoh institutlari ) tushuniladi.

Institutsional sotsiologiya-ijtimoiy hayotiy tashkil etishning va idora etishning barqaror shakllarini o'rganuvchi sohadir.

Ijtimoiy institutlarni konkret tashkilot va guruxlardan farqlash lozim. Yuzaki ko'rinishda, ijtimoiy institut muayyan vazifani bajaruvchi odamlar, muassasalar, idoralar majmui sifatida gavdalanadi. Mazmuniga ko'ra esa, ijtimoiy institut va shakillarining konkret vaziyatlarda amal qiladigan maqsadiga muofiqdir, rasmiy va norasmiy, barqaror standartlashgan tamoyil, normalar, o'rnashmalarni bildiradi. Ijtimoiy institutlar hatti harakatining nisbatan barqaror shakllari na'munalarini, avloddan-avlodga o'tuvchi an'analar, odatlarni qayta takror hosil qilishini ham taminlaydi. Sotsial strukturaga kiruvchi har bir ijtimoiy institut muayan ijtimoiy ahamiyatli vazifalarni ado etish uchun tashkil topadi. Har bir ijtimoiy institut faoliyat

maqsadi, unga erishishni taminlovchi  konkret funksiyalar, ushbu institutga  xos bo’lgan sotsial  pozitsiya  va rahbar  shuningdek maqsadga muvofiq,  kerakli hatti harakatni  rag’batlantiruvchi va deviant hatti-harakatlarga qarshi qaratilgan tazyiqlar  tizimi bilan tavsiflanadi.

Jamiyat faoliyatini taminlovchi ijtimoiy institutlar, jamiyatning barcha jabhalariga yangi jamiyat tarzida hozirlovchi turli xil ijtimoiy institutlardir. Prezdent I.Karimov izchil tadbiq qilayotgan konstitutsiyaga muvofiq, yangi ijtimoiy institutlar  an’anaviy ijtimoiy institutlarga  mutlaqo qarama-qarshi qo’yiladigan balki  jamiyatimizning  o’tmishi, hozirgi va kelajagi  vorisligini taminlashga xizmat qiladigan,  jamiyatdan  begonalashmagan  mamlakatimiz mintaqasiga mos keladigan ijtimoiy institutlar  faoliyatiga yul ochib bermoqda.

Jamiyatni tashkil etuvchi ijtimoiy institutlarga oila, maktab, mahalla, nazorat organlari va boshqa ijtimoiy institutlarni kiritishimiz mumkin.

Oila - insonlarning tabiiy biologik-fiziologik, moddiy, iqtisodiy, xuquqiy-qonuniy, ma`naviy, axloqiy aloqa-munosabatlari asosida qurilgan ijtimoiy birlikdan iborat.

Mahalla - kishilarni jam qiluvchi, ular o’rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, milliy qadriyatlarimizni avloddan-avlodga yetkazuvchi ijtimoiy institutdir. Mahalla ijtimoiy institut sifatida sharqona demokratiyaning bebaho na’munasidir. Quyida bular haqida kengroq ma`lumot olamiz va ularning tarkibiy va mazmuniy o’zgarishi evolyutsiyasini kurib chiqamiz.

# 1. IJTIMOIY INSTITUTLAR, ULARNING MAZMUNI VA MOHIYATI

Ijtimoiy institutlari va uning ijtimoiy mohiyati. Ijtimoiy hayotning boshqa sohalari bilan bir qatorda, shaxs, oila, nikoh, burch va turmush munosabatlari ham inson ma’naviy kamoloti uchun asosiy omillardan biri bo’lib hizmat qiladi.

Hozirgi davrda jamiyatda bo’lgani kabi shaxs, oila, turmushda ham o’ziga xos jarayonlar kechmoqda. Ijtimoiy hayotning muhim sohasi bo’lgan oila, hamda turmush munosabatlari, har bir tarixiy davr, har bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumda o’ziga xos xususiyatlariga ega bo’ladi. Ularda muayyan tuzumning harakteri, jihatlari, ziddiyatlari, ijtimoiy hayotda ro’y berayotgan jarayonlar o’z aksini topadi. Xuddi shu yo’nalishlarni, oila va turmush muammolarini, ushbu ma’ruzada iloji boricha analiz berishga harakat qilamiz.

**Ijtimoiy institut** - tizimning tarkibiy qismlari yoki unsurlari, ularni tashkil etish va o’zaro bog’liqliklari hamda tizimning tashqi muxit bilan bog’liqlikdagi tavsifini beradi. Tizimda 2 turdagi institut bor.

Ushbu jarayonlarning har birida har xil bo’linmalar ishtirok etadi.

Institutlarning asosiy tashkiliy turlaridan keng tarqalganlari chiziqli yoki pog’onali, chiziqli-shtabli, funksional, chiziqli-funksional, dasturli-maqsadli.Bularning har bir, tashkiliy institutida rasmiy va norasmiy aloqalar bo’ladi.

Rasmiy aloqalar avvalo vertikal aloqalardir. Ular rahbar va bo’ysinuvchilarning turlariga qarab bir-biridan farq qiladi.

Gorizontal aloqalar muvofiqlashtirish, uyg’unlashtirish, hamkorlik qilish tarzidagi aloqalardir.

Ular:

**Bo’linmalar instituti** tizimning tuzilishi va funksiyasini ifodalaydi, ya`ni

tashkilotda qanday bo'linmalar mavjud, ular qanday muayyan funksiyani bajaradi.

**Jarayonlarning instituti** tizimda kechayotgan, xarakatdagi jarayonlarni, ularning ichki tashkil etilishi, o'zaro bog'liqligini ifodalaydi.Ushbu jarayonlarning har birida har xil bo'linmalar ishtirok etadi. Institutlarning asosiy tashkiliy turlaridan keng tarqalganlari chiziqli yoki pog'onali, chiziqli-shtabli, funksional, chiziqdi- funksional, dasturli-maqsadli. Bularning har bir tashkiliy institutida rasmiy va norasmiy aloqalar bo'ladi.

Insoniyat jamiyati u yoki bu darajada integratsiyalashmaganda tizim mavjud bo'lmasdi. Demak har qanday tizim integratsiyalashgan. Struktura funksiyaga, funksiya strukturaga ta'sir qiladi. T.Parsons sotsial tizimda institutlashuvni jarayon sifatida ham struktura sifatida ham qaraydi. Umuman jamiyatda institutlashgan model paydo bo'ladi[1].

Jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, huquqiy va xalqaro sohalarga mos bo'lgan sotsial institutlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Ijtimoiy institut tushunchasini sotsiologiyada yoyilishiga katta hissa qo'shgan angliyalik mutafakkir sotsiologlardan biri Gerbert Spensir (1820-1903) hisoblanadi. U individlar o'zaro munosabatning doimiy bir necha yirik turdagi institutlarda namoyon bo'lishini takidladi. Odamlarning oilaviy yashash uy institutini (munosabatlarini) shuningdek, oila, nikoh, tarbiya, jinslar, ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlarni to'g'dirishini ta'kidladi.

-Uy (oila )evolyutsiyasi bosqichlarini ishlab chiquvchi oilaviy munosabatlar o'zgarishini tadqiq etuvchi institutlar urf-odat, an'ana, ahloq orqali insonlarning kundalik harakatini boshqarishga yunaltirilgan institutlar;

-Jamiyat hamjihatligi va etiqodiy birligiga tasir etuvchi diniy institutlar kasb-hunar institutlari;

-siyosiy va sanoat institutlaridir

Spensir biron bir institutlar hayotiga qasdan yoki ongli kiritilmaganligini

[1] Spensir.G.Osnovnaya sotsiolgii. Qarang; Zapadno-evropoyiskaya sotsiologiya XIX nachalo. 279-321-betlar.

takidlaydi. Institutlarni istak va maqsadlar orqali emas, balki muayyan tizimdagi funksiyasi orqali tushuntirdi.

Institutlarni tushuntirish uchun uning kelib chiqishi va yashab o'tgan davrdagi o'zgarishlarsiz bilish mumkin emas.

Barcha institutlar yagona ijtimoiy tizimning qismlari bo'lib, o'zaro kelishgan holda amal qiladi. Agar birontasida buzilish bo'lsa, boshqasi faoliyatiga, albatta tasir etishini takidlaydi.

Har bir institut o'ziga muvofiq ma'lum vazifani bajaradi. Boshqa institutlarni vazifalarini olmoqchi yoki aralashmoqchi bo'lsa, har xolda butun tizimda muvozanat buziladi deydi. Shuning uchun har bir institut o'z ishi, o'z vazifasini bajarishi kerak. Spensirning uruf-odatlar institutini sotsial nazorat nazariyasining ilk timsoli sifatida qaradi, hamda odamlarning o'zaro munosabatidagi xulqini boshqarishdagi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Hatto va diniy axloq qatori marosimlar, an'analar urf-odatlar, rolli udum, tantana tartiblari, modellar, bularning barchasi xulqni nazorat qilish vositasi, umuman jamiyat qullab quvvatlaydigan ixtiyoriy-majburiy faoliyat, harakatlardir. Sovg'a salom olib kelish, olib borish udumi ham qadimdan rivojlanib kelinmoqda.

Amal qilish doirasi va vazifalariga qarab sotsial institutlarning quydagi ko'rinishlarini ajratib ko'rsatish mumkun..

1.Repiyatsion institutlar. Bu institutlar jins va yoshdan tortib to kasb, mashg'ulot turi va qobiliyatiga, mezonlariga asosan jamiyatning rolga oid tarkibini aniqlab beradi;

2. Reguliyativ ( idora etish ) institutlari . Bu institutlar shaxsiy maqsadlarning jamiyatda amal qilib turgan normalariga dahlsiz holda amalga oshish chegaralarini va bu chegaradan chiqib ketganida qo'llaniladigan sanksiyalarni ( bunda sotsial nazoratning hamma mexanizimlari ham kirib ketadi) belgilab beradi.

3. Intigrativ ( uyg'unlashtiruvchi ) sotsial institutlar. Bu institutlar bir butun tizimga jamiyat manfaatlarini qondirishga masul bo'lgan sotsial rollarni ifodalaydi.;

4.. Ananaviy sotsial institutlar. Bu institutlar odat, marosimlar va qarindosh-

urug'chilik tomonidan qatiiy belgilangan normalar bilan bog'liqdir.

5.Madaniy sotsial institutlar. Din, san'at, adabiyot bilan bog'liq№.

Institutsional sotsiologiyada sotsial institutlarning bajaradigan asosiy vazifalari quydagilardan iborat:

a) jamiyat a'zolarini takror ishlab chiqarish, qaytadan tiklash;
b) sotsializatsiya (individga ijtimoiy ahamiyatli bo'lgan qadriyat va normallarni etkazishning turli xil shakllari);

Institutlashuv shunday jarayonki xuddi ana shu tufayli sotsial struktura shakllanadi va rivojlanadi. Ijtimoiy tizim institutlashgan rollar yig'indisini, ya`ni harakatlarning mustaxkam modelini tashkil qiladi. Agar sotsial tizim katta bo'lsa, u bir necha bir-biri bilan bog'langan institutlardan tashkil topuvchi institutchalardan iborat bo'ladi. Jamiyat bir-biri bilan bog'langan institutlardan tashkil topgan katta bir institut.

O'zbekiston jamiyatini yaxlit bir institut sifatida olib qarasak, uni tashkil etuvchi ijtimoiy institutlarni vazifasiga ko'ra kichik institutlarga ajratishimiz mumkin. Ular alohida institut sifatida shakllangan bo'lsada, lekin jamiyatda bir-biri bilan bog'liq holda faoliyat yuritadi.

Jamiyatni tashkil etuvchi ijtimoiy institutlarga oila, maktab, mahalla, nazorat organlari va boshqa ijtimoiy institutlarni kiritishimiz mumkin.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan, ularning o'z manfaatlaridan rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek, milliy va ma`naviy qadriyatlaridan, mahalliy urf-odatlar va ananalardan kelib chiqqan holda maxalliy axamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatini taminlaydigan tuzilma bo'lib, ularning asosiy funksiyalariga quyidagilar kiradi:

-Tegishli hudud aholisini birlashtirish, barcha fuqarolarning manfaatlarini ifodalash, ularni davlat, jamoat ishlarini boshqarishga keng jalb etish;

-Tegishli hududda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni taminlashga kumaklashish;

-Davlat, xujalik va ijtimoiy-madaniy qurilish bo'yicha respublika va mahalliy axamiyatga ega bo'lgan boshqa masalalarni muxokama qilishda ishtirok etish.

Nodavlat va jamoat tashkilotlari o'zlarining aloxida vazifalaridan tashqari yana hammasi uchun umumiy bo'lgan vazifaga ham ega bo'lib, u demokratik qadriyatlarni, kishilarning qonuniy haq-huquqlari va erkinliklarini ximoya qilishdir.

Mustaqillik davrida nodavlat va jamoat tashkilotlari tizimi sifat jixatdan ham, miqdor jixatdan ham rivojlanib bormoqda[1]. Ularning turlari xilma-xildir.

Nodavlat tashkilotlari faoliyat ko'rsatish doirasiga qarab xalqaro nodavlat tashkilotlariga va mamlakatning ichidagi tashkilotlarga bo'linadi, jamoat birlashmalari esa faqat mamlakat ichida tashkil qilinadigan tashkilotlardan iborat bo'ladi[1]

Xalqaro nodavlat tashkilotlariga xos muxim xususiyat shuki, ular axolining turli guruhlari fikrini turli kurinishlarda ifoda etish bilan cheklanmasdan, har bir fuqaroda ijtimoiy fikrning shakllanishiga faol ta`sir ko'rsatadilar.

Xozirgi kunda nodavlat va jamoat tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi xuquqiy asos O'zbekistonda yaratilgan bo'lib, endigi vazifa xuquqiy xujjatlarning ishlashini ta`minlashdan iboratdir.

Fuqarolik jamiyati qurishda, jamiyat va davlat ishlarini amalga oshirishda, fuqarolarning huquqlarini amalga oshirishda, fuqarolarning huquqlarini ta`minlashda, mamlakatda barqarorlikni ta`minlashda muxim rol uynovchi institut, bu - fuqarolarnnig o'zini o'zi boshqarish organlaridir.

Davlatimiz raxbarining: «xammadan oldin odamlarning issiq-sovug'idan, g'am-tashvishlaridan xabar topadigan kim? Albatta - maxalla axli. Turmush tarzini izga

---

[1] Qarang: O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T-2000. 215-bet.

[1] Qarang: I.Karimov O'zbekiston XXI asirga intilmoqda. T-2000.217-bet

solish, kundalik muammolarni hal etish uchun, eng avvalo maxalla faoliyatini kuchaytirish, ularga yordam berish zarur»- degan fikrlari va tafsiyalari hozirgi kun talabiga to'la javob beradi.

O'zbekistonda mahalla timsolida o'zini o'zi boshqaruvchi ijtimoiy tashkilotning noyob shakli azaldan mavjud bo'lib kelgan. O'zbeklar ming yillardan beri jamoa bo'lib, mahallalarga birlashib yashab kelishgan. Maxalla bu fuqarolar intilishi va sa`y-xarakati tufayli muayyan milliy, axloqiy va tartib-qoidalarga rioya qilish, maraka, yaxshi-yomon kunlarni birga o'tkazish, ahillikni ta`minlashga xizmat qiladigan ijtimoiy-iqtisodiy va hududiy jamoadir.

Konstitutsiyaning 105-moddasida: «Shahar, qishloq, va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni va uning maslaxatchilarini saylaydi», deb mustaxkamlangan. Ya`ni o'zini o'zi boshqarish organlari - bu hududiy prinsip bo'yicha yashash joylarida - shahar, qishloq, ovul va mahallalarda tashkil qilinadigan yig'indir.

O'zini o'zi boshqarish tayanchi qilib, mahalla belgilanishi bejiz emas albatta.

Boshqaruvning tashkiliy institutiga jiddiy e`tibor berilmoqda. Boshqaruv instituti va uning apparati har qanday tashkilotning yaxlit organizmi sifatida amal qilishi va rivojlanishini ta`minlovchi, bir-biri bilan barqaror o'zaro aloqada bo'lgan qirralarning tartibga solingan majmuasi ekanligini yana bir bor ta`kidlash kerak[1].

O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi apparati institutlari tarkibiy qismlari o'rtasidagi munosabatlar vertikal va gorizontal shakllarda mavjud.

Gorizontal aloqalar bitta darajadagi munosabat bo'lib, o'z xarakteriga ko'ra moslashuvchandir.

Vertikal institutlar esa boshqaruvning yuqori, o'rta va quyi bo'g'inlari bo'lishini nazarda tutadi.Aynan shunday institutlar davlatning ijro hokimiyati organlari, vazirliklar, davlat qumitalari, turli idoralar va tashkilotlar uchun xosdir.

---

[1] Qarang: A.Xolbekov. boshqaruv sotsiologiyasi. T-2007-yil, 40-bet.

Boshqaruvning tashkiliy institutlari shakllantirish sub`ektning maqsad va vazifalariga mos kelishi, ijodiy mustaqillik va mehnat taqsimotining muvofiqligi, boshqaruv organi va har bir xodim vakolatlari hamda ma`suliyatining aniq belgilanganligi, vazifa, majburiyat, vakolat hamda ma`suliyatlar o’rtasidagi o’zaro mutanosiblikning bo’lishini xisobga olganda samarali bo’ladi. O’zbekistan Respublikasi Prezidenti qayd etganidek, bizda barpo etilgan demokratik institutlar shaklan demokratik mezonlar va g’arb andozalariga uxshasa-da, mazmun-moxiyatiga ko’ra, afsuski, zamon talablari darajasida emas. Bu yerda ushbu institutlarning mazmuni, maqsadi va moxiyati xalqimizning milliy o’ziga xosligi va mentalitetiga mos kelishi lozimligi nazarda to’tilayabdi. Boshqacha aytganda, muovaffaqtiyatli faoliyat ko’rsatayotgan boshqaruv institutlaridan ko’r-ko’rona andoza ko’chirish maqsadga muovfiq emas.

Ijtimoiy institut va ijtimoiy tashkilot ikkita juda muxim tushunchalardir. «Institut» deganda bir-birlari bilan ancha keng birlikka qo’shilgan qismlar yoki elementlarning o’zaro tartibga solingan joylashuvi tushuniladi. Devor, tom, xonalar, zina, koridorlar va hokazo, oxir-oqibat g’ishtlar, toshlar, tusinlar va boshqalarning o’zaro tartibli joylashuvini nazarda tutib, uy instituti to’g’risida so’z yuritishimiz mumkin. Molekula instituti esa, uni tashkil qiluvchi atomlarning uzaro tartibli joylashuvidir. Inson tanasining instituti esa, avvalo, tuqima va organlarning, oxir-oqibatda tirik va o’lik xujayralar va xujayralar orasidagi suyuqlikning tartibga solinishidir.

Shunday qilib, ijtimoiy institut instituttsionallashgan rollar va munosabatlarda shaxslarning tartibga joylashtirilishi bo’lib, institutviy vorislik

esa ana shunday tartibdagi vorislikni ifodalaydi. Buni ehtimol materiya va shakl tushunchalari yordamida ifodalash qulaydir. Statik vorislik misolida binolar xuddi materiya (g’ishtlar, taxtalar, plitkalar va x.k.) singari shakl kabi o’zgarmay qolaveradi. Inson tanasidagi materiyani esa, molekulalar tashkil qiladi, ular esa doimo o’zgarib turadi: mening tanam aynan kechagi molekulalardan iborat emas; xisob-kitoblarga qaraganda, 7 yil davomida inson tanasidagi molekulalar tulaligicha almashib ketadi. Lekin bunda inson tanasi o’z shaklini saqlab qoladi. Agar oyoqni amputatsiya qilish singari xodisalar yuz

bermasa demak tananing institutviy vorisligi statik emas, dinamik xususiyatga ega. Bu jarayonda tanani tashkil qiladigan materiya doimo o'zgarib turadi, shakl esa, o'zgarmay qoladi. Shu ma`noda, kishilik jamiyatlari institutviy vorisligi ham dinamik xususiyatga ega: bu erda materiyani individlar tashkil qilsa, shakl ularning birikish usuli bo'lib,  bu usul instituttsional munosabatlar bilan belgilanadi. XX asr hayotning ko'pgina yo'nalishlarida inqiroziy ko'rinishlar bilan qayd etilgan. Ulardan ijtimoiylashuv jarayonlari ham chetda qolmadi. Hayotning texnizasiyalashuvi, avvalgi ijtimoiylashuvning va avlodlararo aloqalarning yemirilishi, Yangi ijtimoiy instutlarning qurilmaganligi va ijtimoiy aloqalarning yetarlicha emasligi, tanlangan yo'nalishda ijtimoiy harakatni qiyinlashtiruvchi ijtimoiy makonning to'liq emasligi ijtimoiylashuvning avvalgi mexanizmlariga jiddiy o'zgarishlar kiritdi. Ijtimoiy organizmning murakkablashuvi, ko'pgina chegaralar va to'siqlarning buzilishi, sosiol jarayonlarning yuvilishi va qo'nimsizligi, ijtimoy guruhlar dinamikasining o'sishi, qon-qarindoshlik aloqalarining sosiol-milliy-etnik aloqalar tomonidan siqib chiqarilishi-bu tarixning boshqa bir qator obyektiv jarayonlari tarbiyaning asrlar davomida samarali ishlagan bahaybat, lekin oddiy mashinasini buzdilar. XVIII asr oxirigacha jamiyatda ijtimoiylashuv muammosi an'anaviy mexanizmlari harakatda edi. O'sha davrning pedagogik nazariyalarida allaqachon tarbiyaning maqsadlari, vazifalari va shaxsni kamol toptirish muxokama qilina boshlandi-bu tizim Russo va mutafakkirlar tomonidan allaqachon ishlab chiqila boshlangandi. Ya'ni, hyech bo'lmasa g'oya tariqasida bo'lsa ham yoshlar bilan ishlash muammolari maxsus faoliyat predmeti bo'ldi.

Tarbiya deganda insonga aniq sosial xususiyatlar va fazilatlar ato etishning maqsadga muvofiq yo'naltirilgan jarayoni tushuniladi. **Ijtimoiylashuv** deganda – individning sosiumda yashashida hamroh bo'ladigan ijtimoiy hayotning shart-sharoitlarining ta'sir etish jarayoni tushuniladi. U hayot faoliyatining har qanday jarayonida ma'lum sosial tajriba, faoliyat shakllari, me'yorlari, namunalari, qadriyatlariga ega bo'ladi va ana shular sosializasiya deb atala boshladi.

**Ijtimoiylashuv tushunchasiga sosiologlardan E. Dyurkgeym, T. Parsons, G. Tard, N. Smelzerlar nazariy jihatdan ifodalab berganlar.** Ijtimoiylashuv avloddan avlodga o'tishdagi madaniy transmissiyadir (ya'ni, dvigatelning harakatini yoki aylanishini g'ildirak va tasmalar orqali boshqa mexanizmlarga uzatuvchi maxsus qurilmadek). Yoshlarning ijtimoiylashuviga quyidagi asosiy omillar ta'sir ko'rsatadi: ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, tengdoshlar guruhi ta'sirining oshishi, yoshlar submadaniyati, ITR, ijtimoiy dinamikaning o'sishi, yoshlar ijtimoiy hayotidagi bo'sh vaqt rolining o'sishi, ijtimoiylashuvda an'anaviy institutlarning susayishi va innovasion instutlarning paydo bo'lishi, bolalik davrining uzayishi va yoshlik davrining davomiyligi. Sosializasiyaning ikki moduli mavjud: mustaqil hayotga tayyorlash va mustaqil hayotni qayd etish. O'sib keluvchi yosh avlodning ijtimoiylashuviga asosiy jabhalar – ekologik, mezososial, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-axloqiy sohalar ta'sir ko'rsatadi.

Jamiyat va shaxs maqsadlari orasidagi bog'lovchi u yoki bu sosial tizim bo'lishi mumkin. Demak:

Shaxsning ijtimoiylashuvi deb, shaxsning jamiyatga, sosial jamoalarning turli, tiplariga madaniyat elementlari, sosial norma va qadriyatlarni o'zlashtirish orqali sodir bo'ladigan jarayon (ijtimoiylashuv deb ataladi)ga aytiladi.

Shaxsning (individning) sosial tashkilot elementi bo'lishi 2 muhim jihatga bog'liq: 1) sosial tashkilotning shaxsga ta'sir etishi bilan qobiliyatining shakllanishiga va 2) shaxsning boshqa odamlar ta'siriga berilishi bilan qobiliyatining shakllanishiga bog'liq.

Shaxs ijtimoiylashuvning 2 fazasi mavjud:

1. Sosial adaptasiya (moslashish). Bunda individning sosial sharoitlarga, funksiyalarga, sosial normalarga, sosial guruhlarga, tashkilot va institutlarga, ya'ni muhitga moslashishdir. Sosial adaptasiya jarayoni, asosan oilada boshlanadi va shakllanadi. Oiladagi har qanday munosabatlar shaxsning

ijtimoiylashuvida o’z aksini topadi. Shu boisdan individning shaxs sifatida shakllanishida oila asosiy rol o’ynaydi.

2. Sosial interiorizasiya, ya’ni sosial norma va qadriyatlarning individ ichki dunyosiga kirishish jarayonidir. Shaxs sosial muhitga qorishib ketmaydi, balki unga mustaqil birlik sifatida kiradi, Ko’pgina nazariyalarda shaxsning ijtimoiylashuvi, tashqi ta’sir obyekti sifatidagina qaraladi. Bu nazariyalarda asos qilib faqatgina ijtimoiylashuv yordamida sosial o’zgaradigan insonning tabiiy mohiyati olinadi; shaxsning aktivligi va unga beriladigan biologik xususiyatlar hisobga olinmaydi.

Ijtimoiylashuv shunga asoslanadiki, odam ijtimoiy faoliyatchi sifatida o’zi va ham ijtimoiy hayotining, hamda sharoit va vaziyatlarini belgilovchi omildir. Shaxs sosial ta’sirlanishning obyekti va subyektidir. Ijtimoiylashuv jarayonida belgilar tizimi muhim ahamiyatga ega. Belgilar yordamida jamiyat individlar faoliyatini boshqaradi. Individ sosial faoliyat kursatish uchun sosial jamoada qabul qilingan belgilar va ularni ishlatish usullarini o’zlashtirgan bo’lishi kerak.

Individ faoliyat qiluvchi mavjulotdir. U tashqi muhitga shunchaki javob bermaydi, balki amaliy faoliyat jarayonida ham inson sifatidagi o’zining taraqqiyot va faoliyati qonuniyatlarni anglaydi va anglash asosida o’zining sosial faoliyatini belgilaydi. Shaxs tomonidan o’z faoliyatini boshqarish faqat obyektiv va subyektiv qonuniyatlarni bilishgina emas, balki shu qonuniyatlarni, uning elementlarini, xususiyatlarini ham bilishni taqozo etadi.

Shaxslarning sosial faoliyati va sosial harakatining boshlang’ich nuqtasi ma’lum ehtiyoj va manfaatlarni yuzaga keltiruvchi obyektiv hayot sharoitlaridir. Faoliyat turlari ko’p, lekin eng muhimi ularning barchasi shaxsning moddiy va ma’naviy asosini tashkil qiluvchi, ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, ehtiyojlar shaxsning tashqi muhitga obyektiv bog’liqligini bildiradi. Shu sababli shaxsning amaliy faoliyat ehtiyojlarni qondirish shakli sifatida qaralishi obyektiv sharoitlarning in’ikosi va ularni qondirishning real imkoniyatlarini anglash sifatida qaralishi mumkin.

**Ehtiyojlarining 2 ko'rinishi mavjud: 1) tabiiy va 2) jamiyat tomonidan paydo qilingan ehtiyojlar.**

1) Tabiiy ehtiyojlar sifatida kishilarning kundalik ehtiyojlari: ovqat, kiyim, turar-joy va boshqalar tushuniladi.

2) Sosial ehtiyojlar esa odamning mehnat qilish ehtiyoji, sosial aktivligi, ruhiy madaniyati, ya'ni nima ijtimoiy hayot mahsuli shunga bo'lgan ehtiyojdir. Tabiiy ehtiyojlar asos bo'lib, ularda sosial ehtiyojlar paydo bo'ladi, rivojlanadi va qoniqtiriladi.

Shaxsning ijtimoiylashuv davri: quyidagilar asosida kechadi:

1) Bolalik:

- agentlar va ijtimoiylashuv turlari.

2) Ota-onalik:

- otalar va bolalar: ikki dunyo;
- «otalar va bolalar» munosabatlarining mutanosibligi.

3) Uspirinlik:

- qadriyatlar parallel tizimi.

4) Balog'at yoshi:

- voyaga yetgan inson maqomining asosiy mezoilari;
- voyaga yetganlar - shaxs ijtimoiylashuvining faol payti.

5) Keksalik:

- ijtimoiylashuv ushbu davri maqomi va muammolar.

Ijtimoiy faoliyat va ijtimoiy fe'l-atvor mexanizmlari:

1) Faoliyat turlari.

2) Ehtiyojlar:

- tabiiy ehtiyojlar;
- biologik ehtiyojlar;
- ijtimoiy ehtiyojlar.

3) Ijtimoiy faoliyatni asoslovchi mexanizmlar:

- ehtiyojlar;

- qadriyatlar;

- manfaatlar va ularning o’zaro ta’siri;

4) Ijtimoiy nazorat.

5) Sanksiyalar.

6) Ijtimoiy buyruq.

7) O’z-o’zini nazorat.

8) Tashqi nazorat.

9) Jamoatchilik fikri.

10) Deviant (jinoiy bo’lmagan) fe’l-atvor.

11) Delinkvent (jinoyi) fe’l-atvor.

12) Shaxsning muhim ijtimoiy-psixologik xislati - o’z-o’zini anglash kabilardir.

Umuman ijtimoiy muhit ta’siri ostida shaxsning shakllanish jarayonini tasvirlash uchun «ijtimoiylashuv» tushunchasi XIX asr oxirida - paydo bo’ldi. Ijtimoiylashuv deganda shaxsning o’z hayot mobaynida o’zi mansub bo’lgan jamiyatning ijtimoiy me’yorlari va madaniy qadriyatlarini o’zlashtirish jarayonini tushuniladi. «Ijtimoiylashuv» tushunchasi «shaxsni tarbiyalash», «shaxsni shakllantirish» tushunchalari bilan chambas bog’liq, biroq u kengpoq tushuncha bo’lib, insonga barcha mumkin bo’lgan ta’sirlarni qamrab olishga imkon beradi.

Oila bosh ijtimoiylashtiruvchi qismidir. Mehnat unumdorligi hayotni asosiy ta’minlovchi bo’lib hisoblanadi. Doimiy mehnat faoliyat ko’rinishida belgilovchi bo’lgan patrialxal jamiyatda bolalar mehnatga erta jalb qilingan, ular erta ulg’ayganlar. Ijtimoiy institutlarning rivojlanmaganligi tufayli tarbiya oilaviy jarayonda ahamiyatli darajada to’ldirilgan. Oiladan chetda esa ijtimoiy aloqalar to’liq bo’lmagan.

Vaqt o’tib vaziyat o’zgardi. Hozir oila ijtimoiylashgan institut sifatida yangi sosial voqiyliklar tomonidan obyektiv bosimni boshdan kechiryapti, bularga u

deyarli tayyor emas. Bundan tashqari, oila jamiyatning o'ziga xos yacheykasi sifatida uning o'zi qachondir urug' jamoa aloqalari va ta'siridan qandaydir ajralish sifatida yuzaga kelgan edi. Uning o'zi, urug' jamoa tuzumining ichida «meniki» va «o'zganiki» orqali ajralib o'z hududiga tarbiya va ta'lim muammosini olib o'tdi. Endi esa hatto ikkilamchi sosializasiya institutlari vujudga kelgandan so'ng uning tasarrufida qolgan sosializasiyalovchi aloqalarning to'liqligini ta'minlash holatida emas.

Vaqt kelishi bilan shaxsning va avlodning shakllanishida maktab, ishlab chiqarish, armiya, ijtimoiy tashkilotlar va norasmiy uyushmalar ko'proq ta'sir etib boradi. Biroq sosializasiya jamiyat va davlatga o'z vazifasini topshirib, bir tomondan, oila ularga o'zining qadriyatlari haqida qayg'urish vazifasini bera olmadi, boshqa tomondan esa, bugun u o'z hayot faoliyati tarzi bilan qadriyatlar haqida qayg'urishning yaqiniga ham keltirmayapti. Bu jarlik-zamrnaviy tarbiyaning eng murakkab muammolaridan biri. Bu bo'shliqni, joiz bo'lgan joyda qisman din to'ldiryapti, biroq diniy an'analar zamonaviylikka yetarlicha kuchga ega emaslar. Shu bilan bir, oila pozisiyasi sosializasiya instituti sifatida hozircha yetarlicha kuchga ega. Ularning kuchi va zaifligi jamiyat hayotining sosial-tarixiy sharoitlariga bog'liq holda tebranishi mumkin. Biroq, XX asr oxirining yangi voqiyliklarning bostirib kelishi o'zida obyektiv tarzda halokatli tendensiyalar potensialini olib boryapti va bu faqat beqaror va notinch oilalarga emas, balki butun oila institutiga xavf solmoqda.

# 2. OILA IJTIMOIY INSTITUTINING TARKIBIY VA MAZMUNIY O'ZGARISHI

Oila-insonlarning tabiiy biologik, fiziologik, moddiy iqtisodiy, huquqiy qonuniy,manaviy, axloqiy aloqa munosabatlariga qurilgan ijtimoiy birlikdan iborat.

Jamiyat va oila dialektik birlikni tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada,oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir, hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega"deb yozilgan.

Oila ijtimoiy institut sifatida o'ziga xos evolyutsion yulni bosib o'tgan.

Oila asosini ayol bilan erkak o'rtasidagi nikoh birligi tashkil etadi. Oila taraqqiyoti uch yunalishda maqsadga muofiqdir.

1 Oila demografik taraqqiyoti.

2 Oila ijtimoiy taraqqiyoti.

3 Oila iqtisodiy taraqqiyoti.

Oilaning ijtimoiy taraqqiyoti esa oila a’zolarining ma'lumotliligi darajasi, ijtimoiy mavqeyi, salomatliligi borasida o'zgarishi, hamda ularning ta'lim-tarbiyasi, urf-odat, fan va madaniyat, tabiatga va jamiyatga munosabatlarini takomillashib borishidir.

Ma’lumki oila paydo bo'lib tugagunga qadar bir qancha bosqichlardan o'tadi.

Oila sotsiologiyasi - sotsiologiyaning asosiy yunalishlaridan bo'lib, bu fan oilani nikoh asosida tashkil topgan , taroqqiyotida muhim ijtimoiy vazifalarni bajaruvchi sotsial institut sifatida o'rganadi. Oila sotsiologiyasining alohida o'z vazifalari mavjuddir. Ularga jamiyat taraqqiyoti davomida oilaning paydo bo'lishi, rivojlanishi mavjudlik qonuniyatlarini o'rganish, oilaning mohiyati va faoliyati o'zgarib borishini aniqlash, nikoh va oila turlari evolyutsiasini o'rganish, oila tashkil topishi va taraqqiyotida avlodlarining

o'zaro ta'sirini aniqlash, oila tarbiyasi, oilaning rekrativ faoliyatining va oila huquqining ijtimoiy mohiyatini ochib berish, mehnat taqsimotida oila o'rnini o'rganish kabilar kiradi.

Oila sotsiologiyasi oilani tabiiy biologik, nikoh, qarindoshlik manaviy, iqtisodiy va huquqiy munosabatlar asosida insonlarni biriktiruvchi jamiyatning kichik bir bo'lagi sifatida o'rganar ekan,uning jamiyat bilan o'zaro bog'liqligiga asosiy e'tiborini qaratadi. Chunki jamiyat tashkil topishida uning davomiyligini ta'minlashda oila asosiy ijtimoiy, demografik manba hisoblanadi.

Insonning dunyoga kelishi, yangi avlod paydo bo'lishi-avlodlar almashuvi asosan oilada sodir bo'ladi. Farzand to'g'ilib kamolga yetib,shaxs sifatida shakillanguniga qadar lozim bo'lgan barcha ta'lim, tarbiya oila muhitida beriladi. Insonning ota-ona, qarindosh-urug'iga, qariyalarga, atrof-muhitga va tabiatga bo'lgan munosabatlari dastlab oilada shakllanadi. Shu bilan birga oila urf-odatlarini, qadriyatlarini avloddan-avlodga yetkazuvchi sotsial institut hisoblanadi.

Oila asosini erkak bilan ayol o'rtasidagi nikoh birligi tashkil etadi.

Oila faqatgina erkak bilan ayol munosabatini ifodalamaydi. Oila jamiyat bag'rida tashkil topadi, taraqqiy etib borar ekan, o'zi ham ana shu jamiyatning kichik bir bo'lagi sifatida namoyon bo'ladi. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar oila taraqqiyotiga ta'sir etadi. Oiladagi ta'lim-tarbiya xususiyatlari esa jamiyatda o'z aksini topadi. Shuning uchun ham oila va jamiyat o'zaro bog'liq holda taraqqiy etib, rivojlanadi.

Oila taraqqiyotini uch yunalishda tanlasak maqsadga muvofiqdir.

1. Oila demografik taraqqiyoti
2. Oila ijtimoiy taraqqiyoti
3. Oila iqtisodiy taraqqiyoti

Oilaning demografik taraqqiyoti deganda oilaning miqdori shakllanish va demografik tarkibi ma'lum davrlarda o'zgarib borishi tushuniladi.

Oilaning ijtimoiy taraqqiyoti esa oila a'zolarining ma'lumotliligi darajasi,

ijtimoiy mavqeyi salomatlik borasida o'zgarishi hamda ularning ta'lim-tarbiya, urf-odat, fan va madaniyat tarbiyada va jamiyatga bo'lgan munosabatlari takomillashib boradi.

Oilaning oziq-ovqat, kiyim – kechak, uy-joy va boshqa yashash uchun zarur bo'lgan narsalar bilan taminlash darajasining o'zgarib borishi uning iqtisodiy taraqqiyotini belgilaydi.

Ko'rinib turibdiki oila o'z muhiti bilan hayotida turli qirralarni aks ettiradi. Shuning uchun ham oila qator fanlarning o'rganish mavzusidir. Bularga etnografik, demografik, pisixologik, pedagogika, tibbiyot, huquq, iqtisodiyot, tarix sotsiologiya fanlari kiradi.

Ular oila vazifalari va taraqqiyot yunalishlarining alohida tomonlarini o'rganadilar. Masalan iqtisodiy oila jamiyat taraqqiyotida istemolchi guruh sifatida o'rgansa, etnografiya oiladagi urf odatlar qadriyatlarni etnik ko'lamda o'rganadi. Demografiya esa asosiy e'tiborini oilaning eng muhim vazifasi bo'lmish avlod davomiyligini taminlashga qaratadi. Oila sotsiologiyasi esa yuqorida qayd etilganidek oilani jamiyat taraqqiyotida muhim vazifalarini bajaruvchi sotsial institut sifatida o'rganadi. U o'z tadqiqoti davomida oilani urganuvchi barcha fanlar olib borgan tadqiqot natijalaridan keng foydalanadi va ular bilan o'zviy bog'liq holda rivojlanadi.

Ma'lumki oila paydo bo'lganidan to hozirgi davrga qadar uning turlari va ijtimoiy demografik tarkibi muntazam o'zgarib bordi. Oila turlari va tarkibida sodir bo'lgan o'zgarishlar va ularga tasir etuvchi omillarni jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichlari uchun alohida o'rganish ham oila sotsiologiyasining muhim vazifalaridan hisoblanadi. Oila sotsiologiyasining asosiy yunalishlaridan biri oila mohiyati va faoliyatini o'rganishdir.

Oila mohiyati uning faoliyati yani u bajarayotgan vazifalar bilan belgilanadi. Ularga avlod yaratish vazifasini ( jamiyatni davom ettiruvchi avlod yaratish inson zotini davom ettirish ) ijtimoiy vazifasi ( oiladagi farzandlarni tarbiyalash ularni o'zaro tabiatga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarni

shakllantirish oila azolarining dam olishi va salomatligini tiklash) iqtisodiy vazifasi ( oila azolarini oziq ovqat, kiyim-kechak va boshqa yashash uchun zarur bo’lgan vositalar bilan taminlash) kiradi. Oila sotsiologiyasining oila vazifalarini turli tarixiy davrlarda, ijtimoiy guruhlarda, xalqlarda bajarilishi omillari va xususiyatlari oila vazifalariga bo’lgan munosabatlarini ham atroflicha o’rganadi. Oilaning eng muhim vazfasi bu farzandlarning tug’ilishi yani jamiyat davomiyligini taminlovchi yangi avlod yaratishdir.

Tug’ilish dunyodagi turli xalqlarda turli ko’rsatgichlarga ega. Yer shari bo’ylab tug’ilishlarning o’zaro farq qilishi avvalo mamlakatlar aholisining moddiy va ma’naviy turmush darajasi, asrlar davomida shakllanib, saqlanib kelgan urf- odatlarga,diniga bog’liqdir. Bulardan tashqari tug’ilishga aholining jinsiy yoshi bo’yicha taqsimlash, nikoh va ajrashlar jarayonlari tibbiyotning rivojlanishi darajasi, shuningdek har bir davlat tomonidan olib borilayotgan demografik siyosat ham ta’sir etadi. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar ta’sirida oilaning bolaga bo’lgan talab, jamiyatning bolaga bo’lgan ehtiyojiga tasir etuvchi omillarni aholining turli demografik va ijtimoiy guruhlarning hamda er-xotinning oilada farzandlar miqdoriga bo’lgan munosabatlarni sotsiologik tadqiqotlar o’tkazish yuli bilan aniqlab beradi.

Oilaning bugungi shaklida oila a’zolari bir-biri bilan umum turmush iqtisodiy, mulkiy, huquqiy, psixologik munosabatlar o’zaro javobgarlik his-tuyg’ulari bilan bog’lanib turadi. Oilada har bir oila azolarining o’z ijtimoiy o’rni bordir.

Ma’lumki oilaning asosiy-yadrosini er-xotin tashkil qiladi. Oilada er-xotin o’zi yoki farzandlari bilan istiqomad etishadi. Undan tashqari oilada er-xotin farzandlar bilan birga ularning ota-onalari , aka-ukalari va boshqa qarindosh urug’lari ham birga yashashlari mumkun. Oila muhiti uning jamoatda tutgan o’rni oila a’zolariga, ularning xulq-atvoriga bevosita bog’liqdir. Ayniqsa oila muhitida ayolning o’rni alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham oila sotsilogiyasining vazifalaridan biridir.

Oilaning tashkil topishi shakllanishi va rivojlanishida demografik vaziyat muhim ahamiyatga egadir. Oilning ijtimoiy demografik tarkibi va unga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillarni o'rganish ham oila sotsiologiyasi o'rganadigan muhim masalalardan hisoblanadi. Oilaning ijtimoiy demogirafik tartibi deganda oilada yashab kelayotgan kishilarning nikoh qarindoshlik munosabatlari ijtimoiy turli neklar –oddiy oila bilan unda er-xotin nikohga kirmagan yani turmush qurmagan farzandlari bilan yashaydi. Agar birorta farzand turmush qurib shu oilada birga yashasa, unda bu oila kengaygan oila yoki murakkab oilaga aylanadi. Murakkab oilada ikki yoki undan ko'p oddiy oilalar uch va undan ko'p avlod vakillari istiqomad etishadi. Malumki oilaning asosini yadrosini er-xotin tashkil etadi. Agar oilada er-xotin mavjud bo'lsa, yashasa unda oila tula tugal oila, ularning bir oilada yashamasa tugalmas oila hisoblanadi. Undan tashqari oilada er-xotin farzandlari bilan birga ularning ota-onalari, aka-ukalari va boshqa qarindosh urug'lari ham birga yashashlari mumkin. Ana shunday holatlarni hisobga olgan holda sobiq SSSR tarkibiga kirgan barcha respublikalarda, jumladan O'zbekistonda ham oilani quydagi turlarga bo'lib o'rganilgan. Er-xotin bolalari bilan yoki bolasiz yashaydigan oilalar.

Er-xotin bolalari yoki bolasiz, ota onalarning faqat bittasi bilan yashaydigan oilalar. Er-xotin bolalari yoki bolasiz, ota-onalarning bittasi ( yoki ularsiz ) va boshqalar qarindoshlari bilan yashaydigan oilalar; ikki yoki undan ortiq oddiy oila (nikoh juftlari) bolalari bilan yoki bolalarsiz, ota-onalarining biri (yoki ularsiz) va boshqa qarindoshlari bilan yashaydigan oilalar va boshqa

- Qarindoshlari bilan yashaydigan oilalar.
- Ona va bolalar bilan yashaydigan oilalar;
- Ota va bolalar bilan yashaydigan oilalar;
- Ona-bolalar va onaning ota-onalardan biri yashaydigan oilalar;
- Ota-bolalar, otasining ota-onalaridan bilan yashaydigan oilalar;
- Boshqa oilalar.

Oilaning azolari ijtimoiy guruhlariga qarab ham turlariga bo'linadi;

1.Oila a’zolari bir xil ijtimoiy guruhga mansub oilalar.
2. Turli guruhga mansub oilalar.

Oilalarning o’sha oila a’zolari miqdoriga qarab turlariga bo’linishi uning demografik tarkibini tashkil etadi.

O’zbekiston uchun shartli ravishda oilaning 3 ta demografik turga ajratish maqsadga muvofiqdir:

1.Kichik oilalar 2-4 kishi istiqomad etuvchi oilalar;
2.O’rta oilalar 5-6 kishi istiqomat etuvchi oilalar;
3.Katta oilalar 7 va undan ortiq kishilar istiqomat etuvchi oilalar.

Oila sotsiologiyasi o’rganadigan navbatdagi demografik jarayon bu nikohdir.

Malumki, oila nikohdan boshlanadi. Nikoh jamiyat taraqqiyotining ma’lum bosqichida paydo bo’ldi va qator ishtimoiy-iqtisodiy omillar, din, urf-odatlar, qadiriyatlar ta’sirida shakillanib bordi. Nikoh va uning turlari, tarixiy evalyutsiyasi, uning turli xalqlar ijtimoiy guruhlar, hududlar bo’yicha xususiyatlarini, nikoh qonuniyatlarini, oilada mehnat taqsimotini va yoshlarni nikohga psixologik, iqtisodiy tomonidan tayyorlash va aholini nikohga bo’lgan munosabatlarini o’rganish ham oila sosiologiyasida muhim ahamiyatga egadir.

Oila tarkibida hamda rivojlanishiga bevosita bekor etilishi, ya’ni ajralishidir. Ma’lumki, oilada er-xotinning ajralishi birinchi navbatda oilaning tarkibiga ta’sir etadi. Oila tugal oila tugalnas oilaga aylanadi. Oilada farzandlar to’g’ilishi ma’lum darajada kamayadi. Bu esa, o’z navbatida, oilani davom ettiruvchi avlod yaratilishiga, oilaning takror barpo bo’lishiga salbiy ta’sir etadi. Oila sotsiologiyasi mustahkamligiga salbiy ta’sir etuvchi ajralish jarayonini o’rganar ekan, uning sabablarini turli tarixiy davrlarda, davlatlarda, xalqlarda va ijtimoiy guruhlarga xususiyatlarini ochib beradi[1].

Aholi migratsiyasi ham oilaning ijtimoiy-demografik tarkibiga ta’sir

[1] Qarang: A.Xolbekov. Boshqaruv sotsiologiyasi. T-2007-yil, 40-bet.

Bolalar bog’chalari faqatgina bolalarni qamrab turgan joy emas, balki u yerda ularni aqliy rivojlanishi haqida gap borayabdi. Ta’lim sotsiologiyasi no’qtai nazridan jamiyat maktabgacha ta’limni qo’llab quvatlashi, ota-ona bolalarni maktabgacha tayyorlash, shaxsni takomillashtirishga kumaklashuvi lozim. Oldin talabalarni befarqlik va adolatsizlik tashvishlantirgan bo’lsa, hozirgi birinchi navbatda moddiy ta’minot ko’proq qiziqtiradi. Faqatgina 52% talaba o’z

kasbi bo'yicha ishlashmoqda. Ta'lim sohasi mo'ammolarini sotsiologik tahlili shuni ko'rsatadiki, xalq ta'limi manaviy boylikni ko'paytiradi. Siyosiy va huquqiy madaniy bilim bilan bir qatorda ta'lim shaxsni estetik va axloqiy xususiyatlarini kuchaytiradi va jamiyat bilan chambarchas bog'liq.

Ta'lim samaradorligi va sifatini ochib berish uchun bu ijtimoiy institutga quydagicha baho berish zarur.

Sifat aslida falsafiy kategoriya bo'lib obektda uning real mavjudligida ajratib bo'lmaydigan muhim belgilardan iborat. Sifat bir narsani ikkinchisidan ajratib turadigan xususiyat sanaladi. Sifat har bir obekt va predmetning muayyanligini ifodalaydi. Shuning uchun ham uning barcha sohalarda o'rni bor.

Hatto bozor munosabatlari sharoitida uning qadr-qimmati yanada oshdi ta'lim sohasida xususan kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim mazmunining ham sifatini isloh qilish va takomillashtirishga alohida e'tibor berildi. Ta'lim tizimida yangi texnalogiya kirib kelishi va doimiy nazorat qilishda ta'lim sifati oshadi. O'zbekistonda ta'lim tizimidagi nizom 1997-yil 29-avgustda joriy qilingan. Milliy dastur ijrosini muoffaqqiyatli yakunlangan. Uning birinchi bosqichi tugagach ( 1997-2000 ) uning ikkinchi bosqichi yani sifat bosqichi deb nomlanadi. ( 2001-2005 ) . Har bir ijrosining birinchi bosqichida milliy o'quv uslubiy va manaviy asos yaratib uzliksiz ta'lim uchun yaratgan bo'lsa, ikkinchi bosqichda son emas balki sifatga ko'rsatkichlariga ko'proq e'tibor qaratilgan.

Ta'lim sifatini belgilash me'zoni o'sha faoliyat sohasiga oid ko'rsatgichlarini o'z ichiga oladi.

1.Narmativ hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosi.

2.Talabalarning bilimi darajasi.

3.O'quv jarayonlarini tashkil etish.

4.Ilmiy pedagogik kadrlar salohiyati.

5.Talabalarning mustaqil ishlari.

6.Moddiy tehnika va o'quv auditoriya ba'zalari.

7.Ilmiy tadqiqot ishlari.

8.Ma’naviy-ma’rifiy ishlar.

9.Ishlab chiqarish va integrasiya.

10.Xalqaro hamkorlik.

Agarda yuqorida 10 ta ko’rsatkichlar bo’yicha 1650 ball (66%) dan yuqori ball to’plagan oliy o’quv yurtlar sifat ko’rsatgichiga ega deyiladi.

Ta’limda uzviylik deganda bir ta’lim turi fanlarning dasturi keyingi ta’lim turiga o’tganda muttanosib ravishda o’zgarib oddiydan murakabga qarab to’ldirib borilishiga aytiladi. Uzviylik sifatga to’g’ridan-to’g’ri ta’sir ko’rsatadi. Oliy o’quv yurtlarida uzviylikni ta’minlashda o’quv rejalari to’rtta blokka ajratib tuzilgan. Har bir blokdagi fanlarning uzviyligi hisobga olingan.

Ta’lim bilan bilish uzviy bog’liqdir, chunki ta’lim sifat va usuliga qarab bilim olishadi.

Ta’lim uzoq davom etadigan jarayon bo’lib bilim ta’limning uzviyligini ta’minlovchi tushunchadir.

Ta’lim umumiylikka ega bo’lsa bilim xususiylikka egadir. O’qituvchi, ustoz bilim emas balki ta’lim beradi, talaba, o’quvchi esa ta’lim jarayonida bilimga ega bo’ladi.

Didaktika “ta’lim” usullari degan ma’noni bildiradi yani o’qitish demakdir.

Didaktika o’z ichiga bilim, ko’nikma tushunchalarini oladi. Tarbiya nazariyasi ta’lim usullarini singari uzoq davom etadigan jarayon bo’lsa bilim ta’limning uzviyligini ta’minlovchi tushunchadir.

Ta’lim umumiylikka ega bo’lsa bilim xususiylikka egadir.

O’qituvchi bilim emas ta’lim beradi, talaba o’quvchi esa ta’lim jarayonida bilimga ega bo’ladi.

Didaktika ta’lim usullari degan ma’noni bildiradi ma’nosi o’qitish deganidir. Kadrlar deb maxsus kasb tayorgarligidan o’tgan maxsus va mehnat ko’nikmalari tanlangan soha faoliyati bo’yicha tajribaga ega bo’lgan xodimlarga aytiladi.

Tarbiya ham ta’lim singari uzoq davom etadigan jarayon.muassasa yoki

ayrim shaxslar faoliyati bilan bog'liq biron bir bo'lgan voqea hodisa, ish-harakat yoki mavjud holatni tasdiqlash, unga guvohlik berish maqsadida bir necha kishi tomonidan tuzilgan hujjat dalolatnoma tuzish, xilma-xil vazifalarni, maqsadlarni kuzlaydi, lekin uning maqsadi sodir bo'lgan voqeya-hodisalarni yoki mavjud holatni qonuniy huquqiy jihatdan isbotlash yoki tasdiqlashdir. Bir qancha holatlarda dalolatnoma tuzish maxsus huquqiy normalar bilan qonuniy belgilanadi. Masalan korxonaning hisob kitob bo'limlari faoliyatida dalolatnomalar avvaldan belgilangan mazmun va davriylikka asosan tuziladi va ular huquqiy jihatdan muhim o'rin tutadilar. Dalolatnama deyarli barcha hollarda pul mablag'lari va moddiy boyliklarga bog'liq holda tuziladi binobarin u ko'proq moliya- xo'jalik faoliyatida, hisob-kitob, oldi-sotdi va savdo sohalarida keng qo'laniladi.

Jahondagi ko'plab mamlakatlarda oliy o'quv yurtlari o'rta umumiy ta'lim tizimidan keyingi, navbatdagi ta'lim bosqichi hisoblanadi. Oliy ta'lim maktablarining ko'pchiligida o'qish muddati 2 yil yoki undan ko'proq bo'lib, uch siklda yoki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi sikl ta'limi 3-4 yil (yoki ko'proq) davom etadi va bitiruvchilarga bakalavr diplomi beriladi (AQSh, Angliya, Yaponiya, Avstraliyada). Fransiyada birinchi sikl oliy maktabni bitiruvchilariga metriz, Belgiyada lisans unvoni beriladi. Ikkinchi sikl oliy ta'lim maktablariga birinchi siklni tugatgan bitiruvchilarning 10-25 foizi qabul qilinadi. Masalan, bu ko'rsatkich AQSh da – 20, Buyuk Britaniyada – 15, Avstriyada – 10, Avstraliyada – 7, Yaponiyada – 6 foizni tashkil qiladi. Bu davrda tanlangan yo'nalish bo'yicha ixtisoslash-tirilmagan, umumiy, fundamental bilimlar o'qitiladi (Angliya, Ispaniya, AQSh). GFR, Fransiya, Belgiya kabi mamlakatlarda esa 2-sikl oliy ta'lim maktablari talabalari ancha mukammal va bir maqsadga yo'naltirilgan bilimlarni egallaydilar. Lekin hali ular tor profildagi yuqori malakali mutaxassis unvonini olish uchun 2-sikldagi o'qishlarini yana ixtisoslashtirilgan kurslarda 1-2 yil davom ettirishlari lozim.

Ta’limning bunday tizimi o’rta va oliy ta’lim maktablari faoliyatini muvofiklashtirishga, tanlangan soha bo’yicha oliy ta’limdagi izchillikni ta’minlashga samarali ta’sir qiladi.

Muayyan ixtisosliklar bo’yicha maxsus imtihonlar 3 yillik amaliy ish faoliyatidan keyin ham topshirilishi mumkin.

Oliy ta’lim maktablarining 2-siklida o’qish 1-2 yil davom etadi. Bu siklni bitirgan talabalarga magistr unvoni beriladi (AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Avstraliya).

Fransiya va Belgiyada magistr unvoni ma’lum mutaxassisliklarni chuqur o’rganuvchi kurslar bitiruvchilariga ham beriladi. Magistrlik ta’limining o’ziga xos xususiyatlaridan biri – o’quv dasturlarining individuallashtirilganligidir. Bunda o’quv dasturlari talabalar va ularning ilmiy rahbarlari tomonidan tuziladi va kafedralar, dekanatlar tomonidan tasdiqlanadi. Magistraturani bitirgan yoshlar doktoranturaga kirish huquqiga ega bo’ladilar.

Oliy ta’limning 3-sikli, bu – doktoranturadir. Doktoranturaga, asosan, 2-sikl oliy ta’lim maktablarini muvaffaqiyatli bitirgan talabalar qabul qilinadi. O’qish muddati mutaxassislik turiga ko’ra 1-3 yil. Doktoranturaga 1-sikl oliy ta’lim maktablarini bitirganlar ham kirishi mumkin. Lekin bu holda o’qish muddati 3-5 yilgacha uzaytiriladi.

Birinchi sikl oliy ta’limi qoidaga binoan mutaxassislik bo’yicha umumiy bilimlar berishga yo’naltirilgan. Ta’limni alohida ixtisoslarga bo’lib tashkil qilish, odatda, 3-kursdan boshlanadi. Tor mutaxassisliklar bo’yicha kadrlar tayyorlash faqat uchinchi sikldagina amalga oshiriladi.

Ko’p bosqichli oliy ta’lim tizimining bunday o’ziga xos xususiyatlari anglo-amerikancha va fransuzcha model-larda jahon bo’yicha keng tarqalgan. Oliy ta’limning anglo-amerikancha tizimi AQSh, Buyuk Britaniya, Hindiston, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Yaponiya, Isroil va boshqa mamlakatlarda mavjud.

Birinchi sikl oliy o’quv yurtlaridagi o’qish muddati turli mamlakatlarda turlicha. Masalan, AQShda 4 yil, Buyuk Britaniyada – 3 yil. Magistrlik

darajasini olish uchun yana 2 yil o'kish lozim (ayrim ixtisosliklar bo'yicha 1-1,5 yil). AQShdagi qator injenerlik oliy maktablarida bakalavrlik diplomini 5 yillik ta'limdan keyin olish mumkin. Tibbiyot sohasida birinchi doktorlik diplomini (stomatologiya, veterinariya sohalari bo'yicha) olish uchun esa 8 yillik ta'lim joriy qilingan. Yaponiyada esa bakalavrlik darajasini 4 yillik ta'limdan so'ng olish mumkin (tibbiyot mutaxassisliklari bundan mustasno), magistrlik darajasiga teng diplomni olish uchun yana 2 yillik ta'lim dasturini o'tash lozim.

Oliy ta'limning fransuzcha modeli Fransiyadan tashqari Belgiya, Shveysariya, Avstriya, Norvegiya va boshqa mamlakatlarda joriy qilingan. Bu tizim talabalarni sinchiklab tanlash asosida qabul qilishni ko'zda tutadi. Talabalar dastlabki 1-3 yilda umumiy dasturlar orqali ta'lim olish bilan bir qatorda bo'lajak tor ixtisos-likni tanlashda faol ishtirok etadilar.

Ko'p bosqichli fransuzcha oliy ta'lim modelining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Fransuz universitetlarida ta'limning dastlabki 2 yilida qator mutaxassisliklar uchun yagona o'quv dasturlari mavjud.

2. Universitetning 2-kursini tugatib, tegishli guvohnoma olgan talaba shu universitetning 3-kursida o'zi tanlagan mutaxassislik bo'yicha o'qishni davom ettirishi yoki boshqa universitetga o'tishi va yoki o'qishni elita oliy o'quv yurtlarida davom ettirishi mumkin.

3. Universitetning 3-kursini bitirgan talabalar «lisans» diplomini oladilar. Bunday diplomni olgan talabalar o'qishlarini 4-kursda davom ettirish yoki o'qishni tashlab o'z mutaxassisliklari bo'yicha amaliy ish bilan shug'ullanish huquqlariga egalar. 4-kursni tamomlagan talabalar esa «metriz» diplomini oladilar.

4. «Metriz» diplomi uning egasiga to'liq oliy ma'lumot olganligidan dalolat beradi.

Fransiyada magistrlik diplomining yagona nusxasi yo'q. Shuningdek, fransuz oliy ta'lim tizimidagi 2-sikl ta'limining maxsus atama nomi ham yo'q.

2-sikl deganida, odatda, 4 yillik birinchi sikl oliy ta'limidan so'ng keladigan navbatdagi bosqich tushuniladi xolos. Fransuzcha oliy ta'lim modelining 2-sikli 1-2 yillik ta'limni o'z ichiga olib, uni bitiruvchilar tanlagan mutaxassisliklari bo'yicha chuqur bilimlarni o'rganganliklari haqida maxsus ixtisos diplomini oladilar.

5. Mutaxassislikni bildiruvchi diplom (masalan, 2 yillik o'qishdan keyin beriladigan texnologiya sohasidagi universitet diplomi) oliy ta'lim tizimidagi 3-siklli ta'lim tizimining birini bitirganliqdan da-lolat beradi. Masalan, ixtisoslashtirilgan oliy o'quvyurtining 5 yillik kursini bitirgan talaba injener-lik diplomini olsa, universitetning dastlabki 1 -siklini tamomlagan talaba yana 3 yillik kursni bitirgan-dan so'nggina shunday diplom egasi bo'lishi mumkin (L. M. Makarova 1986.-S. 71-73).

6. Ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurtlarida ma'lum soha mutaxassislik diplomini beruvchi yoki doktoranturaga kirish huquqini beruvchi 1 yillik qayta tayyorlov kurslarining keng tarmog'i faoliyat ko'rsatadi.

GFRda esa oliy ta'lim keng miqyosda biron kasbga yo'naltirilgani bilan (xuddi Rossiyadagidek) anglo-amerikancha va fransuzcha modellaridan farq qiladi. Bu yerda, hatto oliy ta'limning sikllarga bo'linishi ham mavjud emas. Ta'lim jarayoni 4 yildan 6 yilgacha muddatda amalga oshirilib, bularning hammasi anglo-amerikancha va fransuzcha oliy ta'lim tizimi talablariga unchalik mos kelmaydi. Germaniya oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladigan 5-6 yillik oliy ta'lim xalqaro standart normalariga ko'ra anglo-amerikancha va fransuzcha oliy ta'lim tizimining birinchi sikliga (bakalavr darajasiga) mos keladi, xolos. Shu sababli keyingi yillarda german oliy o'quv yurtlarining diplomlari ahamiyatini ko'tarish maqsadida oliy ta'limning dastlabki bosqichini qisqartirish, ya'ni 4 yillik qilib belgilash haqida takliflar kiritilayapti.

Oliy ta'lim tizimini tashkil qilishdagi qator milliy xususiyatlar boshqa yevropa mamlakatlarida ham mavjud.

Daniya universitetlari 4 yillik oliy ta'limdan so'ng o'z bitiruvchilariga

asosiy daraja hisoblangan kandidatlik diplomini beradilar. Lekin bunday diplom injenerlik mutaxassisliklarini egallovchilarga 5 yillik ta'limdan so'ng, tibbiyot mutaxassislariga 8 yillik oliy ta'limdan keyin beriladi. Magistr diplomini olish uchun yana 1-2 yil o'qish lozim bo'ladi. Oliy texnika maktabi bitiruvchilariga (3-4 yil) injenerlik ixtisosligi bo'yicha diplom beriladi (lekin injener-quruvchi dip-lomini olish uchun 5 yil o'qish lozim bo'ladi).

Irlandiyada gumanitar fanlar va kommersiya soxasida 3 yillik, tabiiy fanlar va turli injenerlik mutaxassisliklari uchun 4 yillik, qishloq xo'jaligi, stomatologiya, veterinariya sohalari uchun 5 yillik, tibbiyot bo'yicha 6 yillik o'quv dasturlarini o'zlashtirib bakalavrlik darajasiga ega bulish mumkin. Magistraturaga bakalavr diplomi bilan kirilib, u yerdagi ta'lim muddati quyidagi jihatlari bilan xarakterlanadi:

gumanitar fanlar va kommersiya – 1 yil;

pedagogik fanlar – 2 yil;

injenerlik fanlari – 1,5-2 yil;

tabiiy fanlar (ximiya) va tibbiyot – 4-6 yil.

Gresiyada oliy ta'lim asosan 4 yillik bo'lib, ayrim sohalar bo'yicha o'qish muddati biroz uzunroq: injener-lik va stomatologiya – 5 yil, tibbiyot – 6 yil. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, maktabgacha tarbiya muassasalarining tarbiyachilari universitet maqomida bo'lmagan Pedagogik Akademiya deb ataladigan 4 yillik oliy o'quv yurtlarida tayyorlanadi. O'rta maktab o'qituvchilari esa, universitetlarda tayyorlanadi.

Shvesiyada ham oliy o'quv yurtlari 4 yillik, magistraturada o'qish muddati esa 1 yil (yana qarang: I. F. Figerlind 1990. - S. 104).

Shunday qilib, oliy ta'limni tashkil qilishdagi Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi bir xil yondoshuv uning ko'p bosqichliligida, ta'lim muddatlarini belgilashda, oliy ta'limga asosan yoshlarni (ba'zan kattalarni ham) jalb qilishda ko'zga tashlanadi. Lotin Amerikasi mintaqasi bo'yicha yoshlarni oliy ta'lim maktablariga jalb qilinishi haqidagi raqamlar e'tiborga molikdir. Bu mintaqada

18-23 yoshlardagi aholining 27 %i oliy o’quv yurtlarida o’qiydi. Bu ko’rsatkich Argentina va Urugvayda 44%, Venesuela, Kosta-Rika, Panama, Peru, Ekvador va Chilida 25%, Braziliya va Meksikada 15%ni tashkil qila-di (E. G. Yermolayeva 1992. - S. 110).

Hozirgi kunda xorijiy mamlakatlarning oliy ta’lim sohasida olib borayotgan davlat siyosatlari quyidagi jihatlari bilan xarakterlanadi:

1. Xususiy oliy o’quv yurtlarini tashkil qilish, ularni rivojlantirish borasidagi amaliy ishlar davlatlar tomonidan qo’llab-quvvatlanmoqda (chunki bu sohaga davlat va mahalliy byudjet ko’magidan tashqari yirik xususiy sarmoyalar ham jalb qilinishi imkonini beradi). Bunday yondoshuv, ayniqsa, AQSh, Yaponiya va Fransiyada qo’zga yaqqol tashlanadi.

2. Oliy o’quv yurtlari davlat tasarrufida bo’lgan davlatlar alohida ko’zga tashlanadi (FRG, Avstriya, Daniya, Gresiya). Bu davlatlarda xususiy oliy o’quv yurtlari cherkov tasarrufida bo’lib, ular 2-3 foizni tashkil qiladi.

3. Xususiy oliy o’quv yurtlar tizimi keng rivojlanayotgan mamlakatlar (AQSh, Yaponiya, Fransiya). Ularning mavjudligi davlat tasarrufidagi oliy o’quv yurtlari obro’siga putur yetkazmaydi.

4. Yuqoridagi barcha mamlakatlardagi xususiy oliy o’quv yurtlari moliyaviy jihatdan davlat tomonidan qo’llab-quvvatlanadi.

5. Xususiy oliy o’quv yurtini tashkil qilish – bu ko’p sarmoya talab qiladigan tadbirdir. Bu borada to’plangan tajribalarning dalolat berishicha, faqat iqtisodiy baquvvat firmalar (alohida shaxslar) yoki baquvvat ijtimoiy tashkilotgina o’rta darajadagi xususiy oliy ta’lim maktabi faoliyatini tashkil qila oladi (qarang: 3. yea§ag 1996; Poslediplomnaya podgo-tovka i NIOKR v Yaponii 1990, №7. - S. 71-75; ]. 5rpp§ 1994, r. 81-105).

Xususiy va davlat tasarrufidagi oliy ta’limni tashkil qilish borasidagi yo’nalishlarni alohida mamlakatlar misolida aniq tahlil qilaylik.

AQSh. Bu yerda oliy o’quv yurtlarining 1870 tasi xususiy sektor tomonidan nazorat qilinadi (qyyoslang: davlat sek-torida 1520ta). Shunga

qaramasdan 77 foiz talaba davlat sektoriga tegishli oliy o’quv yurtlarida o’qiydilar. Bunday ko’rsatkich tobora ortib borayotganligi kuzatilmoqsa. Bu xususiy oliy ta’lim maktablarida o’qish juda qimmatligi bilan izohlanadi. Buning natijasida jamiyatning o’rta qatlam vakillarining farzandlari bunday oliy maktabga kirib o’qishga qiynalmoqdalar.AQSh da xususiy oliy o’quv yurtini ochish huquqiy jihatdan biron qiyinchilik tug’dirmaydi (u talabgorlar mikdoriga bog’liq). Bu boradagi qiyinchiliklar, asosan, diplomlarning tan olinishi va xususiy oliy o’quv yurti tomonidan beriladigan malaka bilan bog’liq. Bu muammolarning yechilishida turli mintaqaviy va professional agentliklarning fikrlari ustuvorlik kiladi.

**Yaponiya.**

Bu yerda 1986 yilgi ma’lumotlarga ko’ra universitet darajasidagi oliy o’quv yurtlaridan 334 tasi – xususiy sektor va 131 tasi – davlat tasarrufiga tegishlidir (ulardan 95 tasi – milliy, 36 tasi – mahalliy universitetlar). Biroq xususiy oliy o’quv yurtining ochilishi mamlakat hukumatining ruxsati bilan amalga oshiriladi.

**Fransiya.**

Bu yerda 77 universitet mavjud bo’lib, ulardan 5 tasi katolik cherkovi tasarrufida. Shunga qaramasdan, oliy o’quv yurtlarining uchdan bir qismi turli-tuman muassasalar, assosiasiyalar, fondlar va cherkovlar tasarrufida bo’lib, davlatdan mustaqiddirlar. Xususiy sektor tasarrufidagi ixtisoslashtirilgan fransuz oliy o’quv yurtlarining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: 75 foiz oliy o’quv yurtlari biznes va menejment bo’yicha, yoki 45 foizi umuman savdoga oid mutaxassislar tayyorlaydilar. Xususiy sektor tasarrufidagi injener-texnik xodimlar tayyorlovchi oliy o’quv yurtlari 35 foizni tashkil kiladi.

Davlat tasarrufidagi bir profilli oliy o’quv yurtlari institut deb atalsa (masalan, injenerlik sohasida oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlovchilar), xususiy sektordagi shunday rliy o’quv yurtlari «Maktab» deb ataladi. Bunday xususiy «Maktab»lar davlat institutlaridan talabalar miqdorining kamligi bilan

ajralib turadi. Aytaylik, injenerlik, boshqaruv va biznes sohalarda mutaxassis tayyorlovchi xususiy oliy o'quv yurtlarida 600 va undan kam (ba'zan bir necha o'nlab) talaba tahsil oladi.

Odatda, xususiy oliy o'quv yurtlarida o'rta maktablarning bitiruvchilari emas, balki oliy ta'limning 2-siklini, ya'ni universitetlar ta'limining 2 yillik kurslarini tugatgan shaxslar o'qiydilar (qarang: L. M. Ma-karova 1986; M. M. Vladimirova 1985).

**Isroil.**

Mamlakatda Tel-Aviv (1956) va Xayfa (1963) munisipalitetlari tomonidan tashkil qilingan 2 yirik universitet faoliyat ko'rsatadi. Ular asosan munisipalitetlar mablag'i asosida ish yuritishlari tufayli, xususiy oliy o'quv yurtlari hisoblanadi. Shu sababdan ta'lim sohasidagi davlat tomonidan belgilanadigan tartib-qoidalar bu oliy o'quv yurtlariga unchalik taalluqli bo'lmaydi. Mamlakatda yana bir xususiy oliy o'quv yurti – AQSh yahudiylarining diniy tashkilotlari mablag'i evaziga 1955 yil Tell-Aviv shahri yaqinidagi Ramot-Gane shahrida tashkil qilingan Bar-Ilan nomli Universitet faoliyat ko'rsatadi. Isroilning universitet maqomiga ega bo'lmagan ixtisoslashtirilgan professional oliy o'quv yurtlari esa kollej maqomidagi maktablardir (boshqa mamlakatlardagi o'rta maxsus o'quv yurtlari maqo-miga mos keladi). Ular ham xususiy sektor hisobida bo'lib, turli-tuman (milliy va xorijiy) yahudiylar tashkilotlari yoki turli shaharlarning munisipalitetlari orqali boshqariladi. Biroq, bularning hammasi Isroil hukumati oliy ta'lim masalalariga aralashmaydi degan tasavvur tug'dirmasligi kerak. Chunki xususiy oliy o'quv yurtlari byudjetining yarmidan ko'pi davlat hisobidan to'lanadiki, bu mamlakatdagi oliy o'quv yurtlari faoliyatlariga yetarli miqdorda davlat ta'sirini o'tkazish imkoniyatini beradi.

Avstraliya.

1. Mamlakatda 24 universitet mavjud bo'lib, bu oliy ta'lim maskanlarida 9 200 ming talaba tahsil oladi. Oliy ta'lim maqomiga ega bo'lgan 47 kollejda

200 mingga yaqin talaba bilim oladi.

2. Mamlakatda 1987 yilda tashkil qilingan bitta xususiy oliy o'quv yurti – Bond universiteti mavjud.

3. Oliy o'quv yurtlari kollejlarining byudjeti davlat va xususiy sektor hisobidan ta'minlanadi. 1974 yidda mamlakatning federal hukumati shtatlar hamkorligida oliy o'quv yurtlarini to'laligicha davlat byudjetidan ta'minlashga urinib ko'rdi. Ammo bu niyat qiyinligi tufayli amalga oshmay qoldi.

**Germaniya.**

1. Mamlakatda 1987-88 o'quv yilida davlat tomonidan boshqariladigan 50 universitet, 7 ta oliy o'quv yurtlarining birlashmasi, 2 ta Oliy Pedagogika maktabi faoliyat ko'rsatdi.

2. Mamlakatda xususiy sektor tasarrufidagi 9 ta ilohiyat oliy o'quv yurtlari mavjud.

3. Davlat tasarrufidagi oliy o'quv yurtlari federal Yer boshqaruv organlari tomonidan mablag' bilan ta'minlanadi.

**Norvegiya.**

1. Mamlakatdagi 130 oliy o'quv yurti davlat tasarrufida faoliyat ko'rsatadi.

2. 24 ta oliy o'quv yurti xususiy sektor tasarrufida.

3. Oliy o'quv yurtlarini boshqarishda davlat ta'siri kuchli (shu sababli faqatgina 1 ta oliy o'quv yurti – er-kin ilohiyat fakulteti mustaqil hisoblanadi).

4. Xususiy oliy o'quv yurtlari (23 ta) davlat hisobi-dan katta subsidiya oladilar va shu sababli markaziy va mahalliy hokimiyatga tobelar.

Gollandiya.

1. Mamlakatda 14 universitet mavjud bo'lib, ulardan 11 tasi davlat, 3 tasi xususiy sektor (2 katolik va 1 protestant cherkoviga qarashli) tasarrufidadir.

2. 2–3 yillik professional oliy ta'lim maktablarining ko'pchiligi xususiy sektor tasarrufida (masalan, 1986 yilda bunday maktablar 385 ta bo'lib, ulardan 320 tasi (85 foizi) xususiy sektorga qarashli edi).

**Avstriya.**

1. Mamlakatdagi hamma oliy o'quv yurtlari davlat ta-sarrufida.

2. Federal hukumat ularni mablag' bilan ta'minlay-Di, faoliyatini belgilaydi va nazorat qiladi.

3. Oliy o'quv yurtlari tarkibiga (akademik sektor) 12 universitet va 6 oliy badiiy maktab kiradi.

4. Ma'lum sohadagi oliy o'quv yurtlari (pedagogik, tibbiy, savdo va h. k.) tegishli vazirliklar tomonidan boshqariladi.

Ispaniya.

1. Bu mamlakatdagi 545 universitet (bu yerdagi hamma professional institutlar universitet deb yuritiladi) davlat tasarrufida.

2. 33 universitet – xususiy.

3. Universitet maqomiga ega bo'lmagan 20 ta xususiy oliy o'quv yurtlari mavjud.

**Gresiya.**

1. Mamlakatdagi hamma oliy o'quv yurtlari davlat tasarrufida (bu yerda, hatto universitet ta'limi faqat davlat tomonidan amalga oshirilishi haqida qonun bor).

2. Oliy ta'lim tizimidagi xususiy texnik va professional maktablar 1982 yilda chiqarilgan yuqoridagi qonunga binoan davlat tasarrufiga o'gkazildi va texnik ta'lim institutlari deb nomlandi.

Shvesiya.

Mamlakatda 8 universitet faoliyat ko'rsatadi. Ular Upsal, Lunde, Geteborg, Stokgolm, Umeo va Lincheping universitetlari va Lupeodagi texnologik universitet, Shved qishloq xo'jaligi fanlari universitetlaridir. Bundan tashqari 58 ta ixtisoslashtirilgan institutlar mavjud bo'lib, ular ilmiy daraja berish huquqlariga ega. Mamlakatdagi maktablar, barcha universitetlar va ko'pchilik institutlar davlat tasarrufida.

Quyida oliy ta’lim tizimi boshqarilishini moliya-viy nuqtai nazardan ko’rib chiqamiz.

**AQSh.**

1. Oliy o’quv yurtlarini mablag’ bilan ta’minlash, ko’pincha, ularning qaysi siklda ta’lim berishlariga bog’liq (yarim rasmiy).

2. Oliy o’quv yurtlarining birinchi katta guruhiga doktorlik ilmiy darajasini berish huquqiga ega bo’lgan universitetlar kiradi; birinchi va ikkinchi darajali ilmiy-tekshirish universitetlari, birinchi va ikkinchi I darajali doktorlik darajasini beruvchi universitetlar ham ana shu guruhga kiradi; oliy o’quv yurtining moliyaviy ta’minlanishi ana shu darajalar salohiyatiga bog’liq.

3. Birinchi darajali ilmiy tekshirish universitetlari (ular 50 ta) bir yilda kamida 50 ta ilmiy ishga doktorlik darajasini berishlari lozim; AQSh federal hukumati buning uchun katta miqdordagi mablag’ manbalarini belgilaydiki, bu mablag’larning barchasi aniq ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun sarflanadi.

4. Ikkinchi darajali oliy o’quv yurtlarining soni 100 ta bo’lib, ularning faoliyati ham himoya qilingan doktorlik dissertasiyalarining soniga ko’ra baholanadi.

5. Doktorlik unvonini berish huquqiga ega bo’lgan birinchi razryadli universitetlar kategoriyasiga bir yilda kamida 40 ta dissertasiya yoklanadigan oliy o’quv yurtlari kiradi; yoki bunday oliy o’quv yurtlarining kategoriyasi davlat tomonidan ajratilgan mablag’ning bir yilda 3 mln dollardan kam emasligiga qarab belgilanadi.

6. AQSh dagi nufuzli oliy o’quv yurtlarining ikkinchi guruhini ko’p sohali universitetlar va kollejlar tashkil qiladi. Bu oliy o’quv yurtlarida gumanitar fanlar bilan birgalikda tabiiy va muhandislik fanlari bo’yicha ham mutaxassislar tayyorlanadi (1000 dan kam bo’lmagan talabalar kontingenti bilan). Bunday oliy o’quv yurt (kichik universitet va kollej)lar bakalavrlik va magistrlik unvonlari berish xuquqiga egadir; ular ikki kichik guruhlarga bo’linadilar va ularning faoliyati. professional ta’lim dasturlarining miqdori bilan belgilanadi.

7. AQSh oliy o'quv yurtlarining uchinchi guruhini gumanitar va tabiiy fanlar kollejlari tashkil qiladi (AQSh da ularni an'anaga ko'ra erkin sanoat kollejlari deb ataydilar). Ulardan 200 ga yaqini 1 darajali kollejlar hisoblanadi (Keyingi 50 yil ichida ularni bitiruvchilarning ma'lum bir qismi mamlakatdagi 40 ta yetakchi oliy o'quv yurtida doktorlik darajasini oldilar).

8. Professional maktablar va tor ixtisosli oliy o'quv yurtlari (muhandislik, adliya, tibbiyot, o'qituvchilik, biznes maktablar va h. k.) AQSh oliy o'quv yurtlarining 4-guruxini tashkil qiladi.

9. Mahalliy va «kenja» kollejlar (2 yillik ta'lim) Ham o'rta maktabdan keyin amalga oshiriladigan ta'lim tizimining bir bo'g'inini tashkil qiladi.

10. Davlat tasarrufidagi oliy o'quv yurtlarining 50 foizigacha, xususiy oliy o'quv yurtlarining 1 foizga yaqini federasiya boshqaruv organlari tomonidan mablag' bilan ta'minlanadi; mahalliy (4 yillik) kollejlar to'lig'icha shtatlar ma'muriyatlari hisobidan mablag' bilan ta'minlanadi.

11. Federal hukumat tomonidan oliy o'quv yurtlariga ajratiladigan mablag'lar belgilangan maqsadlar uchun sarflanadi (ilmiy tadqiqotlar, qurilish, stipendiya va x. k.).

# XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ijtimoiy institut-uning tarkibiy qismlari yoki unsurlari, ularni tashkil etish va o'zaro bog'liqliklari xamda tizimning tashqi muhit bilan bog'liqliklari tavsifini beradi.

Yuqorida aytganimizdek, jamiyatni tashkil etuvchi ijtimoiy tuzulmalarga oila, maktab, mahalla, nazorat organlari va boshqa ijtimoiy institutlar kiradi. Masalan: oilani oladigan bo'lsak, u jamiyat tarixida azaldan bo'lmagan. Ibtidoiy jamoa tizimining birinchi bosqichida, kishilar tuda-tuda bo'lib yashayotgan davrda jinslar orasidagi munosabatlar muayyan tartib-qoidaga ega bo'lmay, tudadagi barcha erkaklar va ayollar bir-birlariga umumiy er-xotin xisoblangan. Tarixiy taraqqiyot jarayonida jinsiy munosabatlar asta-sekin muayyan tartibga solina boshlandi. Xuddi shu davrlar mobaynida oilalar bugungi ko'rinishini oldi. Nafaqat oilalar balki, boshqa ijtimoiy institutlar ham mana shunday taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan.

Mustaqillik jamiyatida bo'layotgan o'zgarishlar insonlarning jamiyat rivojlanishi to'g'risidagi mavjud qarashlarini, tasavvur va unga yondashuvi tamoyillarini sh jumladan, ijtimoiy institutlarga xalq tushunchalarni o'zgartirdi. Hozirgi zamon ijtimoiy tizimning ijtimoiy aloqalari va munosabatlariga asoslangan tashkilotlar odamlarning uyushganligi bilan harakterlanadigan tizimdir. Bunday ijtimoiy aloqa va munosabatlar intitutsionallashgan bo'lsa, ijtimoiy tizimlar esa-ijtimoiy institutlar deb ataladi.

Ijtimoiy hayotni uyushtiruvchi va uni tartibga soluvchi (masalan, oila, din, mulk, va h.k.) jamiyat uchun hayotiy muhim vazifani bajaruvchi, o'zida muayan tartib normalar, huquqiy-na'munalarni mujassamlashtiruvchi maxsus muassasalar nazorat tizimiga kiradi.

Odatda ijtimoiy institutlar yaxlit holda jamiyat nomidan ish ko'radi. Demak, ijtimoiy institutlar jamiyatda ijtimoiy boshqaruv va uning elementlaridan biri hisoblangan ijtimoiy nazoratni amalga oshiradi. Ijtimoiy institutlar sanksiya va

saylov- taqdirlash orqali hatti-harakat hulq-atvorini boshqaradi. Ushbu instiutlar ijyimoiy boshqaruv va nazoratda juda muhiom rol o'ynaydi. Chunki har bir jamiyatda faoliyatning muayyan turlari elementlarini ifodalovchi institutlar mavjud. Jumladan ularga ijod erkinligi, hususiy mulk va mablag' erkinligi, uy-joy, yani turmush erkinligi, bepul tibbiy xizmat, ta'lim va shaxsning boshqa huquq va erkinliklari kiradi.

Ijtimoiy institutlar tashqi jihatdan muayyan-moddiy ne'matlar bilan taminlangan muassasalar majmui bo'lib, ular aniq ijtimoiy vazifani bajaradilar. Ichki, mazmun jihatdan bu institutlar muayyan shaxslarning konkret vaziyatdagi maqsadiga aniq yunaltirilgan hulq-atvor andozalari tizimini ham o'z ichiga oladi.

E'tibor bering, masalan, adliya ijtimoiy institut sifatida tashqi, rasmiy jihatdan shaxslar, muassasalar va moddiy ne'matlar majmui maqomida odil sudlovni amalga oshirsa, ichki mazmundor tarkibi nuqtai nazaridan u muayyan ijtimoiy funksiyani taminlovchi huquqga ega bo'lgan shaxslar andozalashgan xulq-atvor na'munalari majmui hisoblanadi.

Shunday qilib ijtimoiy institutlar aniq maqsadga yunalgan hulq-atvor andozalarining kelishilgan tizimlar vositasida ijtimoiy faoliyat va ijtimoiy munosabatlar yunalishlarini belgilab beradi. Ularning yuzaga kelishi va tizimiy guruhlanishi ijtimoiy institut hal etadigan vazifalar mazmuniga bog'liq.

Respublikamizda ijtimoiy institutlarning har biri faoliyat maqsadining mavjudligi, ish maqsadni amalga oshirishga safarbar etilganligi, vazifalarning konkretligi, ijtimoiy pozitsiya va rolining aniqligi, shuningdek, istak xoxishning amalga oshishini taminlashi hamda g'ayri-qonuniy hatti-harakatlarga chek qo'yilishi bilan xarakterlanadi.

Oila muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. Oilalarning faoliyati, huquqiy hamda boshqa ijtimoiy normalar tizimi bilan belgilanadi. Iqtisodiy institutlar esa ishlab chiqarish va tovar hamda xizmat ko'rsatishidan foydalanish jarayonlarini taminlaydi.

Mazkur institutlar qatori Resbublikamizda ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy taminot, madaniy tarbiyaviy muassasalar kabi ijtimoiy madaniy institutlar

ham katta ahamiyatga ega. Yangi o’zbek davlatchiligini qaror toptirishning birinchi bosqichdagi vazifalari bajarilishi O’zbekistonning xalqaro obru-e’tibori ortishi va mustahkamlanishida jahon hamjamiyatidagi ko’plab mamlakatlar bilan do’stlik va hamkorlik munosabatlarini o’rnatish va rivojlantirishda bunday institutlarning muhim o’rni bor. Hozirgi zamon jamiyat tizimining eng muhim subekti bo’lmish davlatchilikni isloh qilishda yangi vazifalar va dasturlar ko’ndalang turibdi. Bu avvalambor, ijtimoiy institut va nodavlat ijtimoiy uyushmalarning xilma-xilligi hamda ularning roli mustahkamlanishi shuningdek, aholining siyosiy faolligi oshishi asosida jamiyat hayotini yanada demokratlashtirish vazifalari muhim va dolzarb bo’lib qolganligi bilan izohlanadi.

Hozirgi paytda ijtimoiy institutlar hayotimizning barcha sohalariga tobora kirib bormoqda, shuningdek, O’zbekistoning va mintaqaning mavjud sharotida o’z mazmuniga ega bo’lmoqda. Bu birinchi navbatda, jamiyatda mavjud manfaat va munosabatlarni mujassam etgan holda ifodalovchi ijtimoiy-siyosiy institut bo’lmog’i lozim. Davlat va uning institutlari, mansabdor shaxslar jamiyat va fuqaro oldidagi o’z masuliyatini his qilishlari kerak.

Hozirgi zamon jamiyat tizimi va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish jarayoni yuz berayotgan bir paytda O’ zbekiston aholisi yerli qatlamlarining manfaatlarini ifoda etish lozim bo’lgan keng tarmoqli, ko’p partiyali tizim kabi demokratik institutlar kabi demokratik institutlar hamda boshqa jamoat tashkilotlarining qaror topishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan davlatning roli ijtimoiy-siyosiy institutlar va jamoatchilik harakatlarining vujudga kelishi,qaror topishi va rivojlanishini sekinlashtirib quyadigan har qanday g’ov va to’siqlarni bartaraf etishdan iborat. Zero, ijtimoiy-siyosiy institutlari va jamoatchilik harakatlarisiz Resbublikamizda vakillik demokratiyasini tasavvur qilib bo’lmaydi.

Mamlakatimizda ijtimoy siyosiy barqarorlik jamoatchilik fikrining holatiga yetarli darajada bog’liq bo’lib, uni shakllantirishda boshqa bir ijtimoiy institutga yani-ommaviy axborot vositalari muhim rol o’ynaydi.

Ommaviy axborot vositalarini haqiqiy “To’rtinchi hokimiyat “ ga aylantirish

jarayoni hamma joyda ham murakkab kechmoqda. Chunki, sir emaski, eskicha fakr yuritish hamon o'z tasirini ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy rivojlanish ijtimoiy hayotni liberallashtirishda, so'z erkinligi, uyushmalar, yig'ilishlar erkinligini takomillashtirishda muhim o'rin egallaydi.

Xullas,o'tish davrida davlat bosh islahotchi sifatida o'z vazifasini bajarar ekan, ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarni uyg'unlashtiruvchi ijtimoiy institutlarning fuqarolik jamiyatining muhim omili sifatidagi roli oshib bormoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak ijtimoiy institutlar jamiyatda doimo amal qiluvchi va takrorlanib turuvchi tizim bo'lib, ijtimoiy muhit bilan doimo, o'zaro tasirda bo'ladi.

Ijtimoiy institutlarni biz yuqorida bir qancha turlarini va shakllarini ko'rsatib o'tdik.

Jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, manaviy, huquqiy sohalariga xos bo'lgan ijtimoiy institutlarni ajratib-ajratib ko'rsatish mumkin. Ular o'zining jamiyatda tutgan o'rni va bajaradigan funksiyalari bilan bir-biridan tubdan farq qiladi va shu bilan bog'liq holda faoliyat yuritadi. Siyosiy institutlar muayyan jamiyat mavjudligini, iqtisodiy institutlar esa moddiy ne'matlarning ishlab chiqarilishining taqsimlanishini taminlaydi.

Jamiyatning muhim institutlaridan biri oila hisoblanadi. Uning faoliyati (ota-onalar, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi tarbiya usullari ) huquqiy va ijtimoiy normalar bilan belgilanadi. Bulardan tashqari biz yuqorida jamiyatda amal qiluvchi bir qator ijtimoiy-madaniy institutlar jumladan; maorif , sog'liqni saqlash, madaniy-tarbiyaviy muassasalar, fan, din institutlari to'g'risida ham fakr yuritdik.

Biz yuqorida ijtimoiy institutlarning tarkibiy va mazmuniy o'zgarishi evolyutsiyasini ko'rib chiqdik va uni taxlil qilishda sotsiologik jixatdan yondoshdik.

# Adabiyotlar ro'yxati:

1. I.A. Karimov " O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida ", T. 1999-yil

2. I.A. Karimov " Buyuk kelajak sari " T 2000-yil

3. I.K. Karimov " Xushyorlikka da'vat " T. 2001-yil

4.I.A. Karimov " Kelajak avlod uchun harakat qilish kerak " T.2004-yil

5.I.A.Karimov " Mahallang obod-uying obod " T. 2003-yil

6. I.A.Karimov "O'zbekistan XXI asrga intilmoqda". T-2000 yil.

7.I.A.Karimov "Xalqimizning yo'li mustakillik, ozodlik va tub isloxotlar yo'lidir". T-1996 yil.

8."Ijtimoiy fikr va inson xuquqlari". Jurnal №2, 2007 yil

9.B.Normurodov "Sotsiologiya tarixi" ma`ruzalar matni. Samarqand-2003 yil.

10.Qosimov. M. "Tashkilot va tashkiliy boshqarish nazariyasi". Toshkent.

11.SH.Mansurov "O'zbekistan. Mamlakatning umumiy tavsifi". T-2003 yil.

12."Sotsiologiya" T. 2003-yil

13.M.Bekmurodov " sotsiologiya asoslari " 1994-yil

14.Bo'riyev.M.P. " Oilani rejalashtirish ". T.1999-yil

15.F.E.Sheregi " Sotsiologiya obrazovaniya " M. 1997-yil

16.A.I.Antonov, B.M.Medkov " Oila sotsiologiyasi" 1998-yil

17."O'zbekiston Respublikasining kodeksi" T. 1972-YIL

18.Abdurauf Fitirat " Oila " T.1998-yil

19.E.Giddens " Sotsiologiya " T.2002-yil

20." Umumiy sotsiologiya " T. 1999-yil

21." Sitsiologiya " T. 2000-yil

22." Ayol-oila-huquq ". Davra suhbati materiallari. T. 1998-yil

23.N.S.Aliqoriyev " Sotsiologiya vata'lim "

24." Barkamol avlod " T. 1997-yil

25. Internet saytlari:

- www.ref.uz

- www.Google.uz
- www.Yandex.uz
- www.gov.uz
- www.aci.uz